



## 71. Soatlar va minutlar ishtirok etgan ifodalarni hisoblash

Yondosh mavzu:  
aqtni his qilish

Sonlar bilan qo'shish  
ustun bilan qo'shish



Maydonni qismlar bilan  
to'ldiring



1. Aziz har kuni kechqurun soat 9 da uxlashga yotadi va ertalab soat 7 da turadi. Aziz qancha vaqt uxlaydi? Soat bo'yicha hisoblang. Agar 2-sinf o'quvchisi sutka davomida 10–11 soat uxlashi kerak bo'lsa, uxlash uchun vaqt yetarlimi?



2. Azizning ertalabki nonushtasi 7:30 da, tushligi 13:00 da. Nonushtadan tushlikka qadar qancha vaqt o'tadi? Soatlar bo'yicha tekshiring.

**Vaqlarni qo'shish va ayirishda 1 soat = 60 minut ekanini yodda saqlash kerak.**



$$\begin{array}{r} 1 \text{ h} \quad 60 \text{ min} \\ + 1 \text{ h} \quad 50 \text{ min} \\ \quad 2 \text{ h} \quad 40 \text{ min} \\ \hline 4 \text{ h} \quad 30 \text{ min} \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 1 \text{ h} \quad 60 \text{ min} \\ - 7 \text{ h} \quad 20 \text{ min} \\ \quad 3 \text{ h} \quad 50 \text{ min} \\ \hline 3 \text{ h} \quad 30 \text{ min} \end{array}$$



3. Hisoblang.

$$2 \text{ h } 30 \text{ min} + 2 \text{ h } 40 \text{ min}$$

$$2 \text{ h } 15 \text{ min} + 3 \text{ h } 45 \text{ min}$$

$$7 \text{ h } 36 \text{ min} + 4 \text{ h } 28 \text{ min}$$

$$6 \text{ h } 20 \text{ min} - 3 \text{ h } 30 \text{ min}$$

$$16 \text{ h} - 13 \text{ h } 40 \text{ min}$$

$$9 \text{ h } 23 \text{ min} - 3 \text{ h } 47 \text{ min}$$



4. Ifodalar tuzing va ularni yeching.

a) Mashq qilishdan oldin Lola kitob o'qishni xohlaydi. Agar hozir soat 15:45 bo'lsa va mashg'ulotga soat 17:20 da borishi kerak bo'lsa, u qancha vaqt kitob o'qishi mumkin?

b) Lola 25 minutini yig'ishga, 37 minutini yo'lga sarflasa, mashg'ulotni soat nechada boshlaydi?

## 71. Soatlar va minutlar ishtirok etgan ifodalarni hisoblash



5. Baxtiyorning soati 15 minut orqada. U maktabga kirganida, uning soati 8:20 bo'lganini ko'rsatdi. Agar darslar soat 8:30 da boshlansa, Baxtiyor maktabga kechikdimi?



6. Agar hozir 9:15 bo'lsa, soatlardan qaysi biri to'g'ri ko'rsatyapti? Qolgan soatlar qanchaga olinda yuribdi yoki orqada qolyapti?



7. Elektron soat to'g'ri to'rtburchak shaklida. Ularning uzunligi 32 cm, kengligi esa 17 cm kamroq. Bu soatning perimetrini toping?



8. Buvisinikidan uyigacha borish uchun Jasur shaharga poezdda borishi, keyin esa metroga o'tirishi kerak. U soat 12:43 bo'lganda poyezdga chiqdi va 14:18 da undan tushdi. Keyin u metroga o'tirdi. Metroda yurish poyezdda yurishdan 48 minut kamroq vaqtni oldi. Keyin u uyiga metroda borganidan 32 minut kamroq piyoda keldi. Jasur uyiga yetib borgancha qancha vaqt ketdi?



9. Hisoblang.

$$1 \text{ h } 30 \text{ min} + 3 \text{ h } 45 \text{ min}$$

$$6 \text{ h } 45 \text{ min} + 1 \text{ h } 25 \text{ min}$$

$$1 \text{ h } 36 \text{ min} + 2 \text{ h } 54 \text{ min}$$

$$7 \text{ h } 10 \text{ min} - 4 \text{ h } 50 \text{ min}$$

$$7 \text{ h} - 5 \text{ h } 43 \text{ min}$$

$$8 \text{ h } 40 \text{ min} - 55 \text{ min}$$



10. Sarvar va Umid "Yosh usta" to'garagiga qatnashadi. Mashg'ulot har biri 45 minutdan bo'lgan ikkita darsdan iborat bo'lib, ular orasida 10 minutlik tanaffus bor. To'garakda mashg'ulot qancha vaqt davom etadi?